XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 19-avgust VI-96-90-10-0-K/24 Toshkent viloyati

Nurafshon shahar hududidagi jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-tamoillari to‘g‘risida”gi 781-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 404-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining 14-sonli yig‘ilish bayoni (14.06.2021-yil 02-PA1-9952-sonli), Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-iyundagi 473-sonli qarori, 2024-yil 20-maydagi 321-F-sonli Farmoyishi, 2023-yil 18-fevraldagi 32-sonli (27.02.2023-yil 01-05/1-2562-sonli) bayoni, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 21-iyuldagi VI-56-114-10-0-K/22-sonli va 2024-yil 26-apreldagi VI-90-44-10-0-K/24-sonli qarori, Xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashining 2021-yil 2-iyuldagi VI/XXXVI-I-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi 781-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 25-dekabrdagi 404-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining 14-sonli yig‘ilish bayoni (14.06.2021-yil 02-PA1-9952-sonli), Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-iyundagi 473-sonli qarori, 2024-yil 20-maydagi 321-F-Farmoyishi, 2023-yil 18-fevraldagi 32-sonli (27.02.2023-yil 01-05/1-2562-sonli) bayoni, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining

2022-yil 21-iyuldagi VI-56-114-10-0-K/22-sonli va 2024-yil 26-apreldagi VI-90-44-10-0-K/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Nurafshon shahar hokimligi huzuridagi ishchi guruhning 2024-yil 5-iyuldagi 1/4-4-98-sonli, 18-iyuldagi 1/4-4-108-sonli, 22-iyuldagi 1/4-4-109-sonli bayonlari bilan 6 ta mulkdorlar bilan ularga tegishli ko‘chmas mulk (yer-uchastkasi, bino-inshoot)larni kompensatsiya evaziga olib qo‘yish to‘g‘risida kelishuvga erishilib, mulkdorlarning rozilik xatlari olinganligi asos uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-tamoillari to‘g‘risida”gi 781-sonli Qonuni 21-moddasiga asosan belgilangan tartibda **ilovaga** muvofiq mulkdorlarga tegishli obyektlar olib qo‘yilsin.

Bunda, Nurafshon shahar hokimligi (I.Klichxanov) zimmasiga mulkdorlar bilan notarial bitim (kelishuv) imzolash;

Ajratiladigan kompensatsiya mablag‘ini o‘z qarori (farmoyishi)ni qabul qilgan holda maqsadli va samarali sarflash;

Mulkdorlarga yetkaziladigan zararlar miqdorini qonunchilikka muvofiq bozor qiymati asosida manzilli, haqqoniy va adolatli to‘lanishi hamda shaffofligini ta’minlash uchun shaxsan mas’ul etib belgilash;

Notarial tasdiqlangan kelishuv bitimlariga asosan mulkdorlarga yetkaziladigan zararlarni to‘liq qoplab berilgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi 781-sonli Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan olib qo‘yiladigan yer uchastkasida joylashgan ko‘chmas mulk obyektlarini buzish to‘g‘risidagi qarorini rasmiylashtirish uchun tegishli hujjatlarni viloyat hokimligiga kiritsin.

4. Ushbu qaror Nurafshon shahar hokimligining rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarda hamda boshqa ommaviy axborot vositalarda e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining viloyat hududida yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha doimiy komissiyasi A.Xudayberganov, viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov, Nurafshon shahar hokimi I.Klichxanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi MIRZAYEV ZOYIR TOIROVICH

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2024-yil 19-avgustdagi
VI-96-90-10-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Nurafshon shahrida kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yiladigan mulkdorlarga tegishli obyektlar
RO‘YHATI

№	Mulkdor nomi	Tasnifi *(turar/noturar)*	Kadastr raqami	Manzili
Jami		**6 ta turar**	**x**	**x**
1	Usmonov Sanjar Ravshan o‘g‘li	Turar	11:12:05:01:03:0990	Toshkent yo‘li ko‘chasi 37-uy
2	Kim Anna *(notarial ishonchnoma № 202202186003125 Li Irina Nikitichna)*	Turar	11:21:01:01:04:6282	Toshkent yo‘li ko‘chasi 230-uy
3	Kalandarov Xayot Davlatovich	Turar	11:21:01:01:04:3538	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 143-uy
4	Xakkiyev Kaxramon Nafisovich	Turar	11:21:01:01:04:5945	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 171-uy
5	*marhum* Kuznesov Farhad (merosxo‘r Kuznesova Zarema Farxadovna)	Turar	11:21:01:01:04:7084	Toshkent yo‘li ko‘chasi 113/2-uy
6	Majidov Xamid Rajapovich	Turar	11:21:01:01:04:5799	Toshkent yo‘li ko‘chasi 228-uy